ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

Kontakt masalalarida uchraydigan masalalarni hal etishning asosiy usullari va vositalari

Almardonov Oybek Maxmatqulovich
(Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti)
qmii-oybek.almardonov@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada elastiklik nazariyasi uchun muhim o‘rin egallaydigan kontakt masalalarini yechishdagi asosiy usullar va vositalar, ularning tenglamalari, hamda yechimlari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: elastik yarim tekislik, deformatsiya, kuchlanish, ko‘chish komponentalari, chegaraviy shartlar, kontakt zonasi.

Kontakt masalalarini yechishda elastik yarim tekislikni to‘g‘ri chiziq kesmasi bo‘ylab qo‘yilgan kuchlar ta'siridagi kuchlanganlik holati muhim ahamiyat kasb etadi.

Tashqi geometriyasi mos kelmaydigan elastik jismlarni o‘zaro tasiri masalalarida tasir yuzasining o‘lchovlari jismlarning o‘lchovlaridan ancha kichik deb qaraladi. Bu esa jismlarning o‘lchovlari ancha kattaligini hisobga olganda o‘zaro tasir yuzasidagi kuchlanishlar jismlarning chegarasidan ancha uzoqda joylashgan nuqtalarda ularning konfigurasiyalariga bog‘liq bo‘lmaydi, yani jismlardan birini yarim elastik muhitlardan iborat deb qarash mumkin. Masalaning bunday qo‘yilishi asosan elastiklik nazariyasining “kontakt masalalarida” qo‘llaniladi va chegaraviy shartlarni soddalashishiga, elastiklik nazariyasining matematik usullarini qo‘llash imkoniyatini beradi. Elastik yarim fazoni eni chekli, uzunligi etarlicha katta bo‘lgan yo‘lkaga qo‘yilgan kuchlanishlar tasiridagi kuchlanganlik holatini ko‘rib chiqamiz (1-rasm).


Kiritilgan koordinata sistemasida *0xy* tekislik elastik yarim fazoning chegarasi bilan ustma-ust tushadi, *0z* o‘qi esa yarim fazoning ichiga qarab yo‘nalgan. Kuchlanish fazosining eni $a+b$ bo‘lib, *0y* o‘qi bo‘ylab yo‘nalgan. Bundan tashqari, yarim elastik fazo tekis deformasiya holatida deb qaraladi, yani .

Shunday qilib, yarim elastik fazoning ko‘ndalang qirqimiga $z=0$, qismida $p(x)$ normal va $q(x)$ urunma kuchlanishlar tasir qiladi va ko‘ndalang qirqimining ichki nuqtalarida kuchlanishlarni, deformasiya tenzori komponentalarini va ko‘chish komponentalarini topish talab qilinadi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6



1-rasm.

Yuqorida keltirilganidek, bunday masala chegarada

$$\begin{cases} x < -b \\ x > a \end{cases}, \quad \begin{cases} x < -b \\ x > a \end{cases} \quad \begin{cases} x < -b \\ x > a \end{cases} \quad \overline{\sigma_z} = \overline{\tau_{xy}} = 0,$$

va $-b \le x \le a$ sohada $\overline{\sigma_z} = -p(x), \ \overline{\tau_{xz}} = -q(x)$ shartlarni qanoatlantiruvchi bigarmonik

$$(\frac{\partial^2}{\partial x^2} + \frac{\partial^2}{\partial z^2})(\frac{\partial^2 \varphi}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \varphi}{\partial z^2}) = 0 \quad , \qquad (1)$$

tenglamani qanoatlantiruvchi

$$\sigma_z = \frac{\partial^2 \varphi}{\partial x^2}, \quad \sigma_x = \frac{\partial^2 \varphi}{\partial z^2}, \quad \tau_{xy} = -\frac{\partial^2 \varphi}{\partial x \partial y}, \qquad (2)$$

funksiyani aniqlashga keltiriladi. Bundan tashqari, masalaning qo‘yilishiga ko‘ra, “kontakt zonadan” yetarlicha uzoqlikda kuchlanishlar $\sigma_x \to 0, \sigma_z \to 0, \tau_{xy} \to 0$ shartlarni qanoatlantirishi zarur.

Aniq masalalarni echishda ko‘p hollarda (shtamp masalalarida) chegarada kuchlanishlar o‘rniga shtamp geometriyasidan kelib chiqqan holda $\overline{U_x}(x)$ va $\overline{U_x}(x)$ ko‘chishlar beriladi yoki shtamp ostida sirpanish yo‘q bo‘lsa, $q(x) = \pm \mu p(x)$ (μ — sirpanishdagi ishqalanish koeffisienti) agar sirpanish bor bo‘lsa $q(x) = 0 q(x) = 0$ shartlar hisobga olinadi.

Shtamp masalasida muammoning qo‘yilishiga va mohiyatiga qarab, asosan quyidagi chegaraviy shartlar qo‘yiladi:

Yuqorida keltirilgan umumiy nazariyada yarim tekislikning ayrim sohasiga qo‘yilgan kuchlanishlar ostidagi kuchlanganlik holatini ko‘rib chiqdik. Ammo ko‘pgina hollarda kontakt masalalarida chegarada kuchlanishlar bilan birgalikda ko‘chishlar ham beriladi yani aralash chegaraviy masala qaraladi. Bunday holni asosan shtamp masalalarida ko‘plab uchratish mumkin.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

Aralash chegaraviy shartlar ko‘p hollarda quyidagi to‘rtta ko‘rinishda bo‘ladi.

1. Yarim tekislikning chegarasida normal $p(x)$ va $q(x)$ urunma kuchlanishlar beriladi.

2. Yarim tekislikning chegarasida $\overline{u_z}$ (x) normal ko‘chish va urinma kuchlanish yoki $q(x)$ urinma ko‘chish va normal $p(x)$ kuchlanish beriladi. Bunday chegaraviy shartlar o‘zaro ta'sirga kirishuvchi sirtlar orasida ishqalanish kuchlari mavjud bo‘lmagan hollarga mos keladi va sirtlarning geometrik profilidan kelib chiqadi.

3. Yarim tekislikning chegarasida $\overline{u_z}$ (x) , $\overline{u_x}$ (x) normal va tangensial ko‘chishlar beriladi, yani ikki sirtning bir-biriga nisbatan sirpanishi yo‘q deb qaraladi.
Bu holda ikki sirt orasidagi ishqalanish kuchlari etarlicha katta bo‘ladi va chegaradagi normal va urinma kuchlanishlarni aniqlash kerak bo‘ladi.

4. Chegaradagi normal kuchlanish berilib normal va urinma kuchlanishlar orasida $q(x) = \pm \mu p(x)$ bog‘lanish hisobga olinadi. Bunda $\mu -$ ishqalanish koyeffetsiyenti.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djonson K. “Mexanika kontaktnogo vzaimodeystviya”. Moskva. MIR. 1989.
2. Hardy C., Baronet C.N., Tordion G.V. Elastoplastic identation of a half-space by a rigid sphere.-J.Numerical Methods in Engng., 1971, 3, p.451.
3. Argatov I.I., Nazarov S.A. Metod srashivaemix razlojeniy dlya zadach s malimi zonami kontakta // Mexanika kontaktnix vzaimodeystviya. M. :Fizmatlit, 2001. S. 73-82
4. Almardonov O.M.”Egri chiziqli shtamp masalasi”-Matematika, mexanika va informatika fanlarining rivojida iste'dodli yoshlarning o‘rni ilmiy amaliy tezislari to‘plami. Toshkent-2014. 6-bet